



# UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 5

Published: 05.05.2025  
<https://universaljournal.uz>



## International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

## O'ZBEKISTON HUDUDIDA TARQALGAN TO'G'RI QANOTLI HASHAROTLAR TAXLILI

Mo'ydinova Muhayyo Abdumannobjon qizi

Andijon davlat universiteti

Uzbekistan

[moydinovamuhayyo888@gmail.com](mailto:moydinovamuhayyo888@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda O'zbekiston hududida va Farg'ona vodiysida keng tarqalgan to'g'ri qanotlilar turkumi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va inson oziq ovqatlarining ma'lum qismini tashkil qilgan dukkakli o'simliklarga ham katta zarar yetkazdi. Ularni oldini olishni ilmiy asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** To'g'ri qanotlilar haqida umumiy ma'lumotlar, Sokolov, Yakobsan va sholi chigirtkasi.

**Аннотация:** В диссертации даны подробные сведения об отряде прямокрылых, широко распространенных в Узбекистане и Ферганской долине. Он также нанес значительный ущерб бобовым культурам, которые составляют значительную часть сельского хозяйства и продуктов питания человека. Их профилактика научно доказана.

**Ключевые слова:** общие сведения о прямокрылых, Соколов, Якобсен, рисовая саранча.

**Abstract:** This thesis provides detailed information about the order of Orthoptera, which is widespread in Uzbekistan and the Fergana Valley. It also causes great damage to legumes, which constitute a certain part of agriculture and human food. Scientific justification for their prevention is provided.

**Keywords:** general information about orthoptera, Sokolov, Jacobsen, and rice locust.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Mo'ydinova, M. (2025). ANALYSIS OF ROTARY INSECTS DISTRIBUTED IN UZBEKISTAN. *Universal International Scientific Journal*, 2(5), 54–57. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1831>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Hozirgi kunga kelib o'zbekiston hududida to'g'ri qanotlilarning turlari ko'paydi. Mazkur hasharot yer yuzida 20 mingdan ortiq turi bo'lib, 524 dan ortiq turi Markaziy osiyo hududida keng tarqalgan. Bu guruhdagi hasharotlarning ko'pchiligi inson hayotida muhim o'rin tutgan oziq-ovqat mahsulotlariga katta zarar yetkazib kelishmoqda. Lekin to'g'ri qanotlilarning bir tarafi bizga zarar yetkazsa ikkinchi tomondan foydali tarafi ham bor. Ozuqa zanjirida ham muhim o'rin tutadi. Shu guruhga mansub hasharotlarning orqa oyog'i juda yaxshi rivojlangan va sakrashga moslashgan. Tanasi o'rtacha kattalikda, boshi cho'ziq, uzun antenasi bor. Murakkab ko'zlari va oddiy ko'zlardan iborat. Og'iz aparati yaxshi rivojlangan, kemiruvchi tipda. Oldingi qanotlari qattiqroq, terisimon. Orqa qanotlari enliroq va yumshoqroq, uzunasiga ketgan tomirlar bo'ylab yelpig'ich kabi yig'iladi. Qorin qismi 10 ta bo'g'imdan iborat va serkasi bor. Urg'ochilarining tuxum qo'ygichi bor. [2. 83-84 b].

Ko'pchilik to'g'ri qanotlilar qorinchasining birinchi tergitida (chigirtkalar) yoki oldingi boldirlarida (temirchaklar, chirildoqlar) tovush eshtish timpanal) organo bor. Ko'pchiligi asosan erkak zotlarida orqa sonlari va ust qanotlarida (temirchaklar, chirildoqlar) joylashgan maxsus moslamalar yordamida tovush chiqaradi ya'ni chirillaydi. To'g'ri qanotlilar asosan tuxumlarini yerga qisman turlari o'simliklarga qo'yadi. Ikkita

asosiy hayot formasi uchraydi. Fitofillar va geofillar. Fitofillar tanasi siliq, yonboshi siqiq tekis, yashil yoki sarg'ish o'simliklar oraliq'ida hayot kechiradi. Geofillar tanasi silliq emas, yassilashgan, usti silliq emas rangi tuproq rangiga o'xshash tuproq usti va ichida hayot kechiradi.[1.53-54 b.].

Sokolov (konofimasi) *Conophyma sokolovi* Zubovski, 1899

Qozog'istonning janubiy va O'zbekistonning shimoliy mintaqalarida hamda Farg'ona vodiysida uchraydi. Urg'ochisining uzunligi 14-18 mm, erkaginiki 12-14 mm keladi. Tanasi xira-qo'ng'ir tusda, erkagining tanasida och qo'ng'ir tusdagi uzala chiziqlar bor. Erkagining mo'ylovlari orqasining old qismi oxirigacha boradi. Biqinlaridagi qirralari ravshan ko'rinib turadi, lekin ingichka bo'ladi. O'rtadagi qirrasini o'tkir uchli. Orqasining o'rta qismidagi qirralari salgina bilinadi. Orqasining keyingi qismidagi qirralari esa ravshan ko'rinib va qorinchasining uchiga yetib turadi. Erkagining orqa teshik plastinkalari kvadrat shaklda va ularning keyingi burchaklari yumaloqlangan bo'ladi. Urg'ochisining tuxum qo'ygich pallalarida kalta va mustahkam tishchalar bor. Sokolov chigirtkasi voyaga yetgan holatda qishlasa kerak, chunki uning voyaga yetgan individlari erta ko'klamdayoq uchraydi. Tog'etaklarining pastida hayot kechiradi; mayda shuvoqzorlarni yaxshi ko'radi, bu bilan u boshqa tur chigirtkalardan farq qiladi. May-iyun oylarida juftlashadi. Sokolov

chigirtkasining hayot kechirish tartibi hozirgacha unchalik batafsil o'rganilgan emas. G'allagulli o'simliklar bilan oziqlanadi. [3. 9-10 b.]

Yakobson chigirtkasi (konofimasi) *Conophyma jacobsoni* Uvarov, 1925

Qozog'istonning janubiy – sharqiy, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonning shimoliy mintaqalarida–Ugam, Pskom, Chotqol, Qurama va Farg'ona tog' tizmalarida hayot kechiradi. Urg'ochisining uzunligi 23 mm, erkaginiki 16 mm keladi. Urg'ochisi qo'ng'ir tusda, ba'zan gavdasining sirti ko'kish rangli, biqinlarida qora hoshiya bo'ladi. Erkagi yaltirab turadigan qora tusda bo'lib uning ko'krak va qorinchasi bo'yidan sarg'ish chiziqlar o'tadi. Erkagining mo'ylovlari kallasidan va orqasining oldingi tomonidan uzunroq. Orqasining old qismi juda cho'ziq bo'lib o'rtasida o'tkir uchli qirrası bor, biqinlaridagi qirralari yaxshi, orqasining o'rta qismidagi qirrası salgina ko'rinib turadi. Erkagining orqa teshik plastinkalari trapetsiya shaklida bo'lib, ularning uchlari yumaloq burchaklariga o'xshaydi. Urg'ochisining tuxum qo'ygichidagi pastki pallalarida kalta va mustahkam tishcha bor. Keyingi boldirlari qizil tusda. Yakobson chigirtkasida ham, boshqa hamma chigirtkalardagi singari, qanotlar va ustliklari bo'lmaydi. Oldingi oyoqlarining tos suyaklari o'rtasida to'mtoq konussimon bo'rtmacha bor. Kallasi kalta, peshonasining yon tomoni engashgan. Orqasining old qismi salgina toraygan. Orqasining old qismi o'rta qismining oxirigacha o'tmaydi. Bu zararkunanda ham, ko'pchilik chigirtkalar singari, tog'li joylarni yoqtiradi. [3.9-10 b.]

Sholi chigirtkasi (*Oxya fuscovittata* (Marschall, 1836)). O'zbekistonda bu chigirtka ko'pincha sholi ekinlariga ziyon

yetkazadi; Shagaev ma'lumotiga qaraganda, ayrim yerlarda sholining 2,6 dan 41,2 % gacha va ba'zan 67 % gacha qismi zararlanadi. Bu chigirtka asosan sholining barglarini, ba'zan esa don qobiqlarini va poyalarini eydi. Poyalar ro'vak chiqarayotgan davrida shikastlanganida donlar va ularning qobiqlari rivojlanmaydi, ro'vaklar oqaradi, don tugmaydi. Poyalar kechroq shikastlanganida don qobiqlari oqarmasa ham, ro'vaklar puch bo'ladi. Poyalar 0,1-2,5 %, ba'zan 3,1 % gacha shikastlanadi. Ba'zi mualliflarning ma'lumotlarida O'zbekistonda bu chigirtka yalpi hosilning bir foizga yaqin qismini nobud qilganligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, Turkmaniston va Tojikistonda bu chigirtkaning oq jo'xori va makkajo'xori barglarini ham qisman shikastlaganligi kuzatiladi. Uzunligi: urg'ochisining 24-33 mm, erkaginiki 18-25 mm, rangi yashil, ba'zan sarg'ish tusda; biqinlarida bittadan qora chiziq bor; kallasining tepasi mo'ylovchalari va oyoqlari qizg'ish-qo'ng'ir, keyingi boldirlari esa sarg'ish-yashil tusda bo'ladi. Mo'ylovchalari ipga o'xshaydi. Kallasi kalta va yo'g'on, manglayi juda engashgan bo'ladi. Orqasining old qismining keyingi cheti salgina dumaloqlanib turadi. Urg'ochisining jinsiy plastinkasi salgina o'yiqlik, uning orqa tomoni tikka bo'ladi. Erkagining serkalari kalta siyiq bo'ladi va ularning uchi botib turadi. Ko'kragi oldining pastki tomoni to'mtoq bo'lib, orqa tomoniga salgina engashib turgan o'siqchasi-so'gali bor. Qanotustliklari qorinchasidan uzunroq. Tuxumi ko'zachsiz, lichinkasi yashil rangda bo'ladi. [3.7-8 b.]

#### XULOSA

O'zbekiston hududida tarqalgan to'g'ri qanotli hasharotlar taxlili shuni ko'rsatadiki Monitoring zarurati: Qishloq xo'jaligiga zarar yetkazuvchi to'g'ri qanotli hasharotlar populyatsiyasini doimiy

monitoring qilib borish zarur. Chigirtkalarining ko'payishi va tarqalishini o'z vaqtida aniqlash katta zarar yetkazilishining oldini olishga yordam beradi. Integratsiyalashgan kurash usullari: Zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish, biologik kurash usullarini (masalan, entomofaglar yordamida) qo'llash va

agrotexnik tadbirlarni o'tkazish muhim. Tadqiqotlar: O'zbekiston to'g'ri qanotli hasharotlar faunasini yanada chuqur o'rganish, yangi turlarni aniqlash, ularning biologiyasi va ekologiyasini o'rganish zarur. Muhofaza: Kam uchraydigan va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. R.A Olimjonov "Entomologiya" 1967
2. H. Kimsanboyev, S. Ergashev, R. O'lmasboyeva, B. Sulaymov "Entomologiya" 1987
3. В. В. Яхонтов Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги экинлари ва маҳсулотларини зараркунандалари ва уларга қарши кураш чоралари.
4. Mirakbarova, M., Hojamshukurov, N., Otajonov, A., Abdullayev, X., & Abdutolibov, M. (2024). TENEBRIO MOLITOR LICHINKASIDAN OLINGAN YOG'NING MIKROBIOLOGIK TAHLILI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(2), 60-66.
5. Khujamshukurov, N. A., Abdutolibov, M. Z., Salomova, S. S., Kh, K. D., & Aliqulov, S. M. (2023). ORGANIC PRODUCTION-PROBLEMS AND THEIR SYSTEMIC SOLUTIONS. Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari, 750-759.
6. Туйчиева, Д. С., Аманбаева, С. С., & Абдутолипов, М. З. (2016). Влияние некоторых пестицидов на ультраструктуру печени беременных крыс. In Вестник научных конференций (No. 2-1, pp. 102-103). ООО Консалтинговая компания Юком.
7. Ho'jamshukurov, N., Avazova, O., Kuchkarova, D., Abdutolibov, M., & Rustamov, M. (2024). ISSIQXONA TUPROG 'IDA OG 'IR METALLAR TA'SIRI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(3), 51-56.
8. Ho'jamshukurov, N., Avazova, O., Kuchkarova, D., Abdutolibov, M., & Rustamov, M. (2024). BIOSUBSTRATNING CUCUMIS SATIVUS L. O 'SIB-RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(3), 57-67.
9. Salomova, S. S., Abdixoliqova, F. N., Abdutolibov, M. Z., K. D., & Ho'jamshukurov, N. A. (2023). DUNYODAGI ORGANIK BODRING. Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari, 801-803.
10. Nortoji, X., & Muxriddin, A. (2023). ORGANIK DEHQONCHILIKNI DUNYO MAMLAKATLARI VA RESPUBLIKAMIZDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 92-97.
11. Хужамшукуров, Н., Эшкobilов, Ш., Дилафруз, К., & Абдутолибов, М. (2023). ВЛИЯНИЕ БИОГУМУСА НА СОДЕРЖАНИЕ НИТРАТОВ В РАСТЕНИЯХ И ПЛОДАХ ОГУРЦА. Universum: химия и биология, (1-1 (103)), 24-29.